

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI

NamMQI
O'quv-uslubiy boshqarma
№ 289
«30» 08 2024 y.

«Tasdiqlayman»
NamMQI rektori:
Sh. T. Ergashev
2024-yil



BARQAROR RIVOJLANISH ASOSLARI FANINING O'QUV DASTURI

Bilim sohasi: 500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta'lim sohasi: 520000 – Atrof-muhit
Ta'lim yo'nalishi: 60520200 – Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi

Fan/modul kodi	O'quv yili	Semestr	Kreditlar
BRA1104	2024-2025	1	4
Fan/modul turi	Haftadagi dars soatlari		
Majburiy	4		
1	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Jami yuklama (soat)
	Barqaror rivojlanish asoslari	60 (30 m, 30 a)	120
2	I. Fanning mazmuni – "Barqaror rivojlanish asoslari" fani kelajak avlod ehtiyojlarini inobatga olgan holda, hozirgi zamon kishilik jamiyatining o'zaro uzviy bog'langan ekologik xavfsiz, iqtisodiy ta'minlangan, ijtimoiy muhofazalangan turmush-tarzi shakllantirishdan iborat.		
	<p>Fanni o'qitishdan maqsad – "Barqaror rivojlanish asoslari" fanini o'zlashtirish tegishli fan sohasi to'g'risida ilmiy g'oyalarni ishlab chiqish, shuningdek, ilgari olingan bilimlarni umumlashtirish va qayta ko'rib chiqish asosida mehnat va ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishning ilmiy mafkuraviy hamda amaliy faoliyat sohasi sifatida barqaror rivojlanish to'g'risida zamonaviy g'oyalarni shakllantirish bo'yicha talabalarda bilim va ko'nikmalarni hosil qilishdan iborat.</p> <p>Fanni o'qitishning vazifalari – iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishda tabiiy resurslarni muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish, qayta ishlab chiqarish va iste'mol qilishning barqaror bo'lmagan modellarini o'zgartirish, kambag'allikni qisqartirish hamda aholini ish bilan ta'minlashdir. Mahalliy va xorijiy ilm-fanning barqaror rivojlanish mafkurasini shakllantirishga qo'shgan hissasini o'rganish; barqaror rivojlanish ilmiy mafkurasining fazoviy tarkibiy qismini nazariy ishlab chiqish; mehnat va ijtimoiy munosabatlarni barqaror rivojlanish g'oyalari asosida talabalarga singdirish, amaliy ko'nikmalarni hosil qilish, amaliy tajribada nazariy bilimlarni yozma va og'zaki tarzda shakllantirish vazifalarini bajaradi.</p>		

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-mavzu: Barqaror rivojlanish tushunchasi, mazmuni va mohiyati

Barqaror rivojlanishning asosiy tushunchalari tizimi: barqarorlik-tizimning tashqi ta'sirlar ostida o'z xususiyatlarini saqlab qolish qobiliyati, rivojlanish-ob'yekt (umuman tizim) holatini vaqt va makonda qayta tiklash jarayoni, ehtiyojlar (tabiiy resurslarga va ekologik manfaatlarga bo'lgan ehtiyojlari) va cheklovlar (odamlarning hozirgi va kelajakdagi ehtiyojlarini qondirish uchun atrof-muhitning imkoniyatlari yoki qobiliyatlarini).

2-mavzu: Barqaror rivojlanish kontsepsiyasining paydo bulishi va uning globalashuvi

Tarixiy shakllanishi. Barqaror rivojlanish kontsepsiyasining kelib chiqishi, eng muhim voqealar: J. Forrester "Jahon dinamikasi" (1970), BMTning atrof-muhit bo'yicha konferentsiyasi (Stokgolm, Shvetsiya, 1972), A. Peksei, Rim klubining hisobotlari 1972; M. Mesarovich va E. Pestel "insoniyat butilish nuqtasida" 1974, BMT "Jahon yer Xartiyasi" (1981).

3-mavzu: Barqaror rivojlanish va atrof-muhit muhofazasi

Barqaror rivojlanish kontsepsiyasining tarixi, asosiy voqealari: BMTning atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha konferentsiyasi (Rio-de-Janeyro, Braziliya, 1992), Rio-atrof-muhit va rivojlanish bo'yicha De-Janeyro Deklaratsiyasi, barqaror rivojlanish bo'yicha Butunjahon sammiti (Yoxannesburg, Janubiy Afrika, 2002).

4-mavzu: Xalqaro ekologik munosabat qoidalari va uning ijtimoiy xususiyatlari

Davlatlarning ekologik tamoyillari, xalqaro miqyosda umumietirof etilgan ekologik munosabat printsiplari, tabiiy hodisalar va ijtimoiy jarayonlarning uzaro uzviy boglanganligi.

5-mavzu: Barqaror rivojlanish indikatorlari tushunchasi, turlari va ularni

amalda qo'llash muammolari

Barqaror rivojlanish indikatorlari tushunchasi, turlari va ularni amalda qullash muammolari. Barqaror rivojlanishning indikatorlarini aniqlash orqali global, regional va lokal miqyosda kishilik jamiyatini boshqarish imkoniyati.

6-mavzu: Barqaror rivojlanishning iqtisodiy indikatorlari

Barqaror rivojlanishning iqtisodiy indikatorlari. Barqaror rivojlanish indikatorlarini tanlash va ularni ishlab chiqish indikatorlar aks ettiradigan masalalar.

7-mavzu: Barqaror rivojlanishning ijtimoiy indikatorlari

Barqaror rivojlanishning ijtimoiy indikatorlari. Barqaror rivojlanish indikatorlarini tanlash va ularni ishlab chiqish indikatorlar aks ettiradigan masalalar.

8-mavzu: Barqaror rivojlanish uchun ta'lim

Barqaror rivojlanish va atrof-muhitning mehnat muhofazasiga ta'siri. Aholini ijtimoiy muhofazasida barqaror rivojlanish ta'limning zarurati.

9-mavzu: Barqaror rivojlanishning iqtisodiy indikatorlari

Global, mintaqaviy va milliy darajalarda foydalaniladigan indikatorlar.

10-mavzu: Barqaror rivojlanishning ijtimoiy, ekologik indikatorlari

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHHT) ning ekologik indikatorlar tizimi.

11-mavzu: Global barqaror rivojlanish indikatorlari

Inson potentsialini rivojlantirish indeksi. Qashshoqlik va ochlikka bardam berish, demografik o'sish, qishloqlarda barqaror rivojlanishga ko'maklashish.

12-mavzu: Regional barqaror rivojlanish indikatorlari

Sharqiy Evropa, Kavkazorti va Markaziy Osiyo davlatlari. Davlatning joylashish o'rni, rivojlanishi, iqlimi, xo'jaligining o'ziga hosligi hamda ekologik muammolarining dolzarbligiga asoslangan holda indikatorlarni

tanlashi va muammolarni hal etish yo'nalishlari.

13-mavzu: Milliy barqaror rivojlanish indikatorlari – O'zbekiston misolida
"O'zbekiston Respublikasida atrof-muhitning davlat monitoringi to'g'risida"gi Nizom, O'zbekiston Respublikasi uchun qo'shimcha ekologik indikatorlar majmuasi.

14-mavzu: Mehnat va ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda barqaror rivojlanishni tashkil etish

Barqaror rivojlanishda inson omili. Xodimlarning mehnat majburiyatida barqarorlikni shakllantirish va mahalliy barqaror rivojlanishni tashkil etishda ijtimoiy munosabatlarni tashkil etish.

15-mavzu: Kuchli infratuzilmani barpo etish, inklyuziv va barqaror sanoatlashirish va innovatsiyalarni rag'batlantirish

2017–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining hayotga tatbiq etilishi va natijalari.

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining mazmun mohiyati va ustuvor yo'nalishlari. "Taraqqiyot strategiyasi" doirasida amalga oshirilayotgan sanoatlashirish va innovatsiyalarni rag'batlantirishga doir keng qamrovli islohotlar.

III. Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. "Barqaror rivojlanish" tushunchasi. Asosiy ta'riflar va talqinlar.
2. Barqaror rivojlanish mafkurasining paydo bo'lishining tarixiy mazmuni va shartlari.
3. Barqaror rivojlanish kontsepsiyasining asosiy tushunchalari.
4. Barqaror rivojlanishning umumiy ilmiy asoslari.
5. Dunyo davlatlarining rivojlanish ko'rsatkichi.

6. Barqaror rivojlanish kontsepsiyasining mualliflari.
7. Barqaror rivojlanishning ekologik xususiyatlari.
8. Rivojlanishning ekologik cheklavlari.
9. Barqaror rivojlanish manfaatlari uchun ekologik menejment.
10. Barqaror rivojlanishning ijtimoiy xususiyatlari.
11. Madaniy xilma-xillik va rivojlanish.
12. Barqaror rivojlanish kontsepsiyasida ijtimoiy himoyaga muhtoj qattam.
13. O'zbekistonda mehnat munosabatlarini tashkil etish.
14. Barqaror rivojlanish strategiyalari.
15. O'zbekistonning barqaror rivojlanishga o'tish muammolari.

Seminar mashg'ulotlar multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlar faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

"Barqaror rivojlanish asoslari" fanidan mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar yangi innovatsion va kompyuter texnologiyalari qo'llanilgan holda yozma va o'g'zaki shaklda olinadi. Bunda uchta o'zaro bog'liq anglash va ijod qilish faoliyatini o'z ichiga oladi: mashg'ulotlarda olingan axborotni qayta ishlash, qabul qilinganlarni tizimlashtirish, mustaqil shakllantirish, xulosalash va umumlashtirish.

Mustaqil ta'limning birinchi, ikkinchi va uchinchi mustaqil ta'lim topshiriqlarini belgilangan tartibda bajarish talabaga maksimal baho olish imkonini beradi. Ular mos ravishda birinchi va ikkinchi oraliq nazorat baholariga qo'shiladi.

Mustaqil ta'lim uchun quyidagi topshiriqlar tavsiya etiladi:

1. Esse yozish.

Bunda talaba esse uchun tavsiya etilgan mavzulardan ixtiyoriy 1 ta mavzu

tanlab oladi va tanlagan mavzusini esse shaklida yozma bayon qiladi. Talaba mavzuning mohiyatini tushuntirishi, bilish, aytib berish, tasavvurga ega bo'lishi zarur.

2. Taqdimot tayyorlash.

Bunda talaba taqdimot uchun tavsiya etilgan mavzulardan ixtiyoriy 1 ta mavzu tanlab oladi va tanlagan mavzusiga taqdimot tayyorlaydi. Talaba mavzuning mohiyatini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tushuntirishi, bilishi, aytib berishi kerak.

3. Krossword tuzish.

Bunda talaba krossword uchun tavsiya etilgan mavzulardan ixtiyoriy 1 ta mavzu tanlab oladi va tanlagan mavzusiga krossword tuzadi. Krossword talabaga yangicha yondashuv va fikrlashga yordam beradi.

1-ON uchun mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan savollar:

1. Kambag'allikni barcha shakllarida umumbashariy barham toptirish. (esse yozish uchun).
2. Ochlilikni bartaraf etish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va oziqlanishni yaxshilash va qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish. (taqdimot tayyorlash).
3. Sog'lom turmush tarzini ta'minlash va farovonlikni targ'ib qilish;
4. Inklyuziv va adolatli sifatli ta'limni ta'minlash va umrbod ta'lim olish imkoniyatlarini targ'ib qilish. (krossword tuzish uchun).
5. Gender tengligini ta'minlash va barcha xotin-qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish. (taqdimot tayyorlash).
6. Barqaror, inklyuziv va barqaror iqtisodiy o'sishni, to'liq va samarali ish bilan ta'minlash va munosib mehnatni rag'batlantirish. (krossword tuzish uchun).
7. Kuchli infratuzilmalarni barpo etish, inklyuziv va barqaror sanoatlashtirish va innovatsiyalarni rag'batlantirish. (esse yozish uchun).

4	<p>VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> • ma'ruza; • seminar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javob); • guruhlarda ishlash; • taqdimot qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar.
5	<p>VII. Kreditlarni olish uchun talablar:</p> <p>“Barqaror rivojlanish asoslari” kursini o'qitish ta'limning kredit tizimi asosida ma'ruza, amaliy mashg'ulotlari, taqdimotlar, hamda mavzu bo'yicha mustaqil ish topshiriqlarni o'z ichiga oladi. Oraliq nazorat, mustaqil ish shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha test topshiriqlarini muvaffaqiyatli topshirishi kerak bo'ladi.</p>
6	<p>Asosiy adabiyotlar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. 2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To'ldirilgan ikkinchi nashri: – Toshkent: O'zbekiston, 2022. – 416 bet. 3. Нигматов А.Н., Шивалдова Н.С., Сулганов Р.Н. Экологические аспекты устойчивого развития // Учебный курс лекции. – Ташкент, 2003. – 100 с. 4. Nigmatov A., Ibragimova R. Barqaror rivojlanishning geografik xususiyatlari // Hozirgi zamon geografiyasi: nazariya va amaliyoti. – Toshkent: 2006. – B. 110–112. 5. Barqaror kelajak sari. O'quv-metodik qo'llanma. – Toshkent: CHINORENK, 2013. – 176 bet.

3	<p>2-ON uchun mustaqil ta'lim uchun tavsifiya etiladigan savollar:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Mamlakatlar ichida va ular o'rtasidagi tengsizlik darajasini pasaytirishgacha tarbiyalash. (esse yozish uchun) 2. XXI asrda "yashil iqtisodiyot" tamoyillarining amalga oshirilishiga doir misollar" (esse yozish uchun). 3. Barqaror rivojlanishga erishish vositalarini mustahkamlash va barqaror global sheriklik mexanizmlarini faollashtirish rivojlantirish. (taqdimot tayyorlash). 4. Jamoat tashkilotlari va ularning prinsiplarni amalga oshirishdagi roli barqaror rivojlanish. (taqdimot tayyorlash). 5. O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalari (krossword tuzish uchun). 6. O'zbekistonning Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta'minlashdagi o'rni. (krossword tuzish uchun). 7. Barqaror rivojlanish tarzida yashash metodlari: energiya, qurilish, ishlab chiqarish; iste'molni oqilona qisqartirish. (esse yozish uchun). <p>V. Ta'lim natijalari/ Kasbiy kompetensiyalari</p> <p>Talaba bilishi kerak:</p> <p>Barqaror rivojlanish kontseptsiyasining shakllanish tarixi, uning metodologiyasi asoslari va barqaror rivojlanishning asosiy imperativlari asoslangan tadqiqot ko'nikmalari.</p> <p>Tasavvur va bilimga ega bo'lishi;</p> <p>Barqaror rivojlanishning tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy omillarini baholash; uning xavf-xatarlarini va shartlarini aniqlash bilishi hamda ulardan foydalanish bo'yicha ko'nikmaga ega bo'lishi;</p> <p>Akademik fanlar va yo'nalishlar doirasida barqaror rivojlanish g'oyalari asoslangan mehnat muhofazasini mukammal bilishi, uni har qanday sharoitda amaliyotda qo'llay olishi bo'yicha malakaga ega bo'lishi kerak.</p>
---	--

Erqo'ziyev A. – NamDU, Tarix kafedrası mudiri, t.f.n.
Ismoilov M. – NamMQI, f.f.d, professor

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Isxakov B.B. O'zbeklarning an'anaviy ekologik madaniyati (tarixiy-etnologik tadqiqot). Monografiya. – Namangan: "Iste'dod ziyo press" nashriyoti, 2023. – 204 bet.
2. Nigmatov A, Kulmatov R., Rasulov A., Muxamedov Sh. Barqaror rivojlanish va uning tizimli indikatorlari. Monografiya. – Toshkent: Spectrum Media Group, 2015. – 120 bet.
3. Сборник рабочих документов ЮНЕСКО по образованию устойчивого развития. Вестник представительства ЮНЕСКО в Узбекистане. 2005. – 332 с.
4. Tabiat. Jamiyat. Ma'naviyat. (Prezident Islom Karimov asarlarida ekologiya masalalarining yoritilishi). Ekologik ta'lim va tarbiya uchun qo'llanma. To'ldirilgan ikkinchi nashri. / So'zboshi va tuzuvchi A. Nigmatov. – Toshkent: O'zbekiston, 2009. – 152 bet.

Axborot manbalari:

1. www.un.org/esa/sustdev/ – Birlashgan Millatlar tashkiloti (BMT) ning barqaror rivojlanish komissiyasi sayti.
2. www.desd.org – BMTning «Barqaror Rivojlanish ta'limi o'n yilligi» sayti.
3. www.undp.org – BMTning rivojlanish dasturi sayti.
4. www.un.org/csa/sustdev/ – Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning Barqaror rivojlanish komissiyasi sayti.

7 Fanning o'quv dasturi Namangan muhandislik-qurilish instituti kengashining
“ ” 2024-yildagi № _____ - sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

8 Fan/modul uchun mas'ul:

Isxakov B. – Namangan muhandislik-qurilish instituti, (PhD), dotsent
Sotiboldiyev G'. – Namangan muhandislik-qurilish instituti, katta o'qituvchi
Otaxanov A. – Namangan muhandislik-qurilish instituti, katta o'qituvchi
Jo'rayev H. – Namangan muhandislik-qurilish instituti, o'qituvchi